

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo‘yicha 2024-yil 24-25-iyun kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti negizida bo‘lib o‘tgan **“O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an‘analari va transformatsion jarayonlar”** nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya anjumani

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi: “O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi: an‘analari va transformatsion jarayonlar”.

2. Anjuman maqomi: Respublika miqyosida.

3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o‘tkazish uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining qator buyruq va ko‘rsatmalari asos qilib olindi.

4. Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari.

Konferensiyaning maqsadi O‘zbekiston davlatchiligi, Respublikamizning nufuzli OTM professor-o‘qituvchilar tomonidan berilgan tavsiyalarni davlatchilik boshqaruvi, ta’lim, fan sohasida qo‘llash mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish hamda ularning O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimidagi xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Konferensiyada o‘zbek davlatchiligi dasturlarining bayon qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimi mexanizmini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Konferensiya Respublika ma’naviy rivojlanishida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida davlatchilik tarixining transformatsion jarayonlarda ilmiy-tadqiqot uslubi orqali o‘rganishning samarali tizimini yaratishga yordam beradi va ta’lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot muammolarni hal etishga qodir bo‘lgan kadrlar – manbashunos olimlarni tayyorlash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, konferensiyaning ilmiy xulosalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakillariga "O‘zbekistonda madrasalar tarixi manbashunosligi" fani bo‘yicha yangi yo‘nalishni oliy ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga kiritish to‘g‘risida yo‘llangan murojaat bo‘ladi.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

1. O'zbekiston hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi: muammoning nazariy asoslari va ilk o'rta asrlar o'zbekiston hududidagi davlatchilik jarayonlari
2. Rivojlangan o'rta asrlar va xonliklar davrida davlatchilik.
3. O'zbekiston mustamlakachilik va mustabid sovet tuzumi davrida
4. Mustaqillik yillarida O'zbekiston davlatchilik taraqqiyoti: islohotlar va istiqbollari.

6. O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnika dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi.

Anjuman Konferensiya O'zbekiston tarixi, uning davlatchiligi va uning manbashunosligi tarixiga doir tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning ilmiy kompetentligini oshirish, ta'lim muassasalarida o'zbek davlatchiligi tarixi yo'nalishini tashkil etish, oliy ta'lim jarayonida o'zbek davlatchiligining ahamiyatini ochib berish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatini aniqlash, iqtidorli talaba va magistrantlar bilan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan uzviy bog'liq.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

Anjumanda O'zbekiston tarixi mutaxassisligining ilmiy kompetentligini oshirish, ta'lim muassasalarida o'zbek davlatchiligi tarixi yo'nalishini tashkil etish, oliy ta'lim jarayonida o'zbek davlatchiligi ta'limining ahamiyatini ochib berish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ilmiy-tadqiqotchilik salohiyatini aniqlash, iqtidorli talaba va magistrantlar bilan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tahlil qilindi.

8. Anjumanda yosh olimlar, magistrlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi.

Mazkur Respublika anjumaniga mahalliy mutaxassislar, sohalarining malakali kadrlari bilan bir qatorda, Respublikamizning nufuzli oliy ta'lim dargohlari va ilmiy-tadqiqot muassasalaridan olimlar va professor-o'qituvchilari onlayn ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki.

Anjumanda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining O'zbekiston tarixi kafedrasida professori G'offorov Shokir Safarovich "The place of resettlement policy in the transformation of Turkestan into a Russian colony" ma'ruzasi bilan chiqish qildi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti Nasrullayev Mahmud Ibodullayevich o'zining "O'zbekistonning janubida qadimgi davlatchilikning shakllanishi masalasiga doir" ma'ruzasi bilan anjumanda ma'ruza qildi.

Qarshi davlat universiteti professori Baxodir Eshov "Davlatchilik va etnogenez masalasida ayrim nazariya va qarashlarning tahlillari" ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti professori Mirsodiq Is'hoqov “Sugʻdiy cwyws (*kawus*) ismining talqini masalasi (sugʻdshunoslikka oid qaydlar)” mavzusining yangi qirralarini ochib berdi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Jahon tarixi kafedrası dotsenti Sirojiddin Usarov oʻzining “Zamonaviy xalqaro munosabatlar chaqiriqlari va Oʻzbekiston tashqi siyosati” nomli maʼruzasi bilan ishtirok etdi.

Anjuman yakunida faʼkultet kafedralarida iqtidorli talabalar va magistrantlar bilan seleksion ishlarni olib borish va ularni istiqbolli ilmiy mavzular boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etish koʻlamini yanada kengaytirishga kelishib olindi.







**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.A.Xushvaqto'v